

II-CHORAK

2015 yil yanvar-iyunda chakana tovar aylanmasi 1020,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,8 foizga o'sdi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi quyidagicha ifodalanadi:

| | 2014 yil yanvar-iyungacha nisbatan foiz hisobida | | Yakunga nisbatan foiz hisobida |
|---|--|-------|--------------------------------|
| Jami | 1020,0 | 112,8 | 100,0 |
| shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha: | | | |
| davlat mulki | 0,8 | 2,2 | 0,1 |
| nodavlat mulki | 1019,2 | 112,7 | 99,9 |

Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 25,3 mlrd. so'mga yetdi yoki 2014 yil yanvar-iyungacha nisbatan 125,9 foizga o'sdi.

Aholiga ko'rsatilgan pulli xizmatlar hajmi 484,1 mlrd. so'mni, uning real o'sishi esa 2014 yil yanvar-iyungacha nisbatan 110,8 foizni tashkil qildi. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatishning asosiy qismi rasmiy sektor tomonidan amalga oshirilib (69,7 foiz), bu sektorda xizmatlar hajmi amaldagi narxlarda 337,6 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa 108,9 foizni tashkil qildi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 115,4 foizga o'sib, 146,5 mlrd. so'mni, pulli xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi esa 30,3 foizni tashkil etdi.

Aholiga ko'rsatilgan umumiy pulli xizmatlar hajmida nodavlat sektori ulushi 87,6 foizni tashkil qildi (2014 yil yanvar-iyunida 86,7 foizni tashkil etgan).

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha aholiga ko'rsatgan xizmatlar hajmi quyidagicha ifodalanadi:

| | Mrld. so'm | Yakunga nisbatan foiz hisobida | Ma'lumot uchun: 2014 yil yanvar-iyungacha nisbatan foiz hisobida |
|----------------|--------------|--------------------------------|--|
| Jami | 484,1 | 100,0 | 110,8 |
| davlat mulki | 60,0 | 12,4 | 101,9 |
| nodavlat mulki | 424,1 | 87,6 | 110,9 |

Pulli xizmatlar umumiy hajmida maishiy xizmatlar 13,8 foizni yoki 66,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Ularning real hajmi 2014 yil yanvar-iyungacha nisbatan 115,9 foizga oshdi. Maishiy xizmatlarning 90,4 foizi xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilib, ushbu sektorning xizmatlar hajmi dastlabki baholanganda 60,4 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa 116,5 foizni tashkil qildi.

2015 yil yanvar-iyungacha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmi 1324,0 mlrd. so'mni, shu jumladan qishloq joylarida 413,4 mlrd. so'mni yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 31,2 foizini tashkil qildi. 2014 yil yanvar-iyungacha nisbatan real o'sish 116,3 foizga to'g'ri keldi.

2015 yil yanvar-iyunida xizmatlar ishlab chiqarish turlari bo'yicha (amaldagi narxlarda) quyidagicha ifodalanadi:

| | 2014 yil yanvar-iyungacha nisbatan foiz hisobida | | Yakunga nisbatan foiz hisobida |
|---|--|-------|--------------------------------|
| Xizmatlar-jami | 1324,0 | 116,3 | 100 |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 98,8 | 120,7 | 7,5 |
| Komp'yuter dasturlari bilan bog'liq xizmatlar | 0,8 | 114,4 | 0,1 |
| Moliyaviy xizmatlar | 97,9 | 133,1 | 7,4 |
| Transport xizmatlari | 345,4 | 112,3 | 26,1 |
| Qurilish xizmatlari | 142,9 | 125,2 | 10,8 |
| Texnologik qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 5,2 | 111,3 | 0,4 |
| Qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 2,7 | 123,3 | 0,2 |
| Sayyohlik xizmatlari (mehmonxona xizmatlarini qo'shgan holda) | 1,7 | 108,8 | 0,1 |
| Savdo va umumovqatlanish xizmatlari | 255,8 | 118,4 | 19,3 |
| Maishiy xizmatlar | 83,5 | 116,6 | 6,3 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 46,8 | 105,1 | 3,5 |
| Sog'liqni saqlash sohasida xizmatlar | 9,9 | 132,0 | 0,7 |
| Qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar | 10,1 | 108,3 | 0,8 |
| Boshqa bozor xizmatlari | 222,5 | 109,1 | 16,8 |

Xizmat ko'rsatishda eng katta ulush transport (jami xizmatlarning 26,1 foizi), savdo va umumovqatlanish (19,3 foizi), moliyaviy (7,4 foizi) va boshqa xizmatlar (16,8 foiz)ga to'g'ri keldi. Shuningdek, sayyohlik xizmatlari (mehmonxona xizmatlarini qo'shgan holda) (0,1 foiz), sog'liqni saqlash (0,7 foiz), qurilish xizmatlari (10,8 foiz), moliyaviy (7,4 foiz), kompyuter dasturlari bilan bog'liq xizmatlar (0,1 foiz) qishloq xo'jalik texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish (0,2 foiz), qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar (0,8 foiz), maishiy (6,3 foiz) xizmatlarida o'sish yuqori bo'ldi.

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)